

Axsikent yodgorligidagi ochiq osmon ostidagi muzey kengayadi

Ma'lumki, Axsikent yodgorligidagi arxeologik tadqiqotlarni rivojlantirish, u yerda yaratilgan ochiq osmon ostidagi muzeyni kengaytirish ishlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil mart oyida Axsikent yodgorligiga tashrifi chog'ida bergan topshiriqlari asosida boshlangandi.

Qadimiy markazda barpo etilayotgan ochiq osmon osti muzeyi va uning yaqinida qurilishi ko'zda tutilayotgan majmua borasida O'zR FA Milliy arxeologiya markazining professori Abdulhamid Anorboyev shunday deydi: — Mazkur loyihaga ko'ra, Axsikentda 10 ta arxeologik obyekt ustida ochiq osmon osti muzeyi barpo etiladi. Yodgorlik yaqinida katta majmua qurilishi ko'zda tutilgan, xususan, bu majmua tarkibida tarixiy-arxeologik muzey, hunarmandlar markazi, tarixiy festival uchun amfiteatr barpo etiladi.

Axsikentda va uning yonida barpo etilishi ko'zda tutilgan yirik majmuada har ikki yilda tarixni o'ziga xos tarzda jonlantiruvchi, kishilarni o'tmishni o'rganishga chorlovchi va butun jahonga boy tariximizni targ'ib qiluvchi xalqaro festival o'tkazilishi ham belgilangan.



